



QUVA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN DASTLABKI ARXEOLIGIK TADQIQOTLAR.

Xolmatov Qudratillo Saydmaxmutovich

Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston-Xitoy arxeologiya qo'shma
kafedrasi doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19244939>

ARTICLE INFO

Received: 1st March 2026

Accepted: 5th March 2026

Published: 27th March 2026

KEYWORDS

Ark, *rabot*,
ibodatxona, *sopol*, *shahriston*,
tepa, *budda*, *hom* *g'isht*,
ekspeditsiy, *manzilgohlar*.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Quva yodgorligida olib borilgan dastlabki arxeologik tadqiqotlar haqida so'z boradi. XX asrning 50- yillaridan yurtimizning ko'plab hududlarida arxeologik tadqiqotlar amalga oshiriladi. Jumladan Farg'ona vodiysida ham shunday izlanishlar olib borildi. Y.G'ulomov boshchiligidagi ekspeditsiya tarkibida nafaqat rus olimlari balki o'zbek arxeologlari ham Quva yodgorligini o'rganishda katta hissa qo'shdilar.

XX asrning o'rtalarida yurtimizda keng ko'lamlı arxeologik tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Farg'ona vodiysidagi asosiy tadqiqotlar qadimgi Quva yodgorligi harobalariga qaratildi. X-XII asr geograflari tomonidan tilga olingan. Qubo shahri aholi manzilgohini o'rganish ishlari 1956 yildan boshlangan edi. Quvaning tadqiqot ob'ekti sifatida tanlashi boshqa ko'plab hollarda bo'lgani kabi, iqtisodiy qurilish ehtiyojlari bilan bog'liq edi. Tadqiqotlar arxeolog Y.Y.G'ulomovning umumiy rahbarligida katta ilmiy hodim V.A.Bulatova (1957-59 yillarda jamoa raxbari), V.D.Jukov va L.I.Albaum (xaykal parchalarini tiklash bo'yicha tadqiqotlar, 1958) lar ishtirokida amalga oshirildi. Bundan tashqari kichik ilmiy hodimlar I.Axrorov, M.Aminjanova (1956), D.P.Varxotova (1959), P.Zahidov, X.Muxamedov va laboratoriya yordamchilari R.Burnasheva, U.Alimov, G.Magdiyev, G.Dmitreva va A.Salahuddinovlar mazkur ekspeditsiyada qatnashdilar.

1956-yilda V.D.Jukov qadimgi Quva shahri harobalarida dastlabki razvedka ishlarini amalga oshirdi. 1959 yilda esa V.A.Bulatova Quva aholi punkti yaqinida kichik minora qal'asi (ko'shk) harobalarini o'rganib chiqdi. Bino 4-5 metr balandlikdagi loy va toshli stilobat ustiga qurilgan. Uning joylashuvini aniqlashning iloji bo'lmadi, chunki yodgorlik juda yomon holatda saqlangan edi. Bu erda topilgan katta keramik artefaktlar III-IV asrlarga tegishli. (Shishkin, 1961).

1956 yilda V.D.Jukov Quva tumanida maqsadli arxeologik tadqiqotlar amalga oshirdi va Quva tumanining arxeologik xaritasi tuzib chiqildi. Keyingi yillarda (1957-1958) I.Axrorov tadqiqotlarni davom ettirildi. Tadqiqotlar natijasida 4 ta antik va 22 ta o'rta asrlarga oid yodgorliklar haritaga tushirildi. 1964-1965 yillarda yangi tuman chegaralarini belgilanishi munosabati bilan yodgorliklarni tuman xaritasida qayd etish, ularning rejalarini vizual ravishda o'rganish va tozalash, qazishmalar orqali sanalarni aniqlash uchun yangi tadqiqotlar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotlar natijasida yangi chegaralar ichida mintaqada 3 ta xronologik guruhga bo'lingan 33 ta yodgorlik mavjudligi aniqlandi: bir qavatli (miloddan avvalgi I asr -

milodiy I asr); bir qavatli ilk o'rta asrlar(IV-VII asrlar);ko'p qavatli (milodda avvalgi I asrdan XIII asr boshlarigacha).(Isamiddinov,2022).

Birinchi guruhga quyidagilar kiradi:Chilla mozor,Chilton tepa,Nomsiz tepa,Boiston ota,Xoja Chillik tepa,O'raboshi qishlog'idagi tepa vaMullajon tepa.

Ikkinchi guruhga esa Yomonjar tepa, JarTEpa,Qizil ketmon tepa va Urus mozor tepalar kiradi.

Uchunchi guruhga Zindon tepa,Quva shaxristoni,Oq ota tepa,Zangish tepa va Chorbobo tepaliklari kiritilgan.

Yana sakkizta yodgorlikda shurflar qazildi va tozalandi,ettita tepalik esa qazilmadi va ularning sanalari aniqlanmadi.Bir nechta joylarda olib borigan qazishmalar natijasida Kushon davriga oid g'ishtli qal'alar,ilk feodal ko'shklar va aholi punktlari, ko'p qatlamli aholi punktlari va keng xronologik diapazonga ega shahar aniqlandi.

Quva yodgorligi yuqoriroq joylashgan hokim saroyi(ark),unga tutashgan shahriston va rabot past tepaliklardan iborat.Shahristonning g'arbiy va sharqiy qismlarida aholi punktining yuqori qatlamlariga tegishli turar-joy binolari topilgan.Uylarning devorlari hom g'ishtdan qurilgan,ba'zi joylarda pol qismi pishgan g'isht bilan qoplangan.Ko'plab artefaktlar,asosan maishiy sopol parchalari to'plangan bo'lib,bu bizga binolarning XII-XIII asrlarga oid deb hisoblashimizga imkon beradi.Binolar yahshi saqlanmagan,olov izlari ko'rinib turibdi.Bu esa Markaziy Osiyodagi boshqa aholi joylarida bo'lgani kabi mo'g'ullar istilosi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.(Bulatova,1972).

Shahriston yaqinadagi tepalikda olib borilgan qazishmalar alohida qiziqishlar uyg'otadi.Bu erda qadimgi budda ibodatxonasi qoldiqlari topilgan bo'lib,yahshi saqlanmagan hovli hamda xonadan ko'plab budda ilohlari va jinlarning ko'plab singan xaykallari topildi.Xaykallarning bosh qismi alohida ahamiyat kasb etadi,ayniqsa jinlarning.Ular turli ranglar bilan bo'yalgan va zarxallangan.Ibodatxona devorlarida devoriy rasmlar mavjud bo'lib,uning kichik qismlarigina saqlanib qolgan,qolgan qismlari buzib tashlangan yoki olovda yo'qolgan.(Shishkin,1961).

1960-yilda kuzgi dala tadqiqot mavsumida Quva tumanining boshqa tepaliklarida ham arxeologik qazishma ishlari olib borildi.Quva tuman markazidan 3 km janubi-g'arbda Takantepa(mahalliy aholi tomonidan Xakantepa deb nomlanadi) tepaligi burchaklari chiqib turgan tartibsiz beshburchak shaklida bo'lib minoralari mavjud.Tepalikning poydevordan umumiy balandligi 6 metrni tashkil etadi.Qadimgi davrlarda mustaxkam feodal qal'asi-ko'shk bo'lgan degan taxminlar bor.Kirish g'arb tomonda bo'lib,u erda darvoza inshootining qoldiqlari qiyalik shaklda saqlanib qolgan,ular orasida keng yo'lak hali ham mavjud.(Varxatova,1964).

VII asrga oid budda ibodatxonasi va aholi punktlarini tadqiq etish jarayonida qazishma hududi bo'ylab to'rtburchak shakldagi loy g'ishtli kameralarga dafn qilingan ko'p qavatli qabriston topildi.Bu qabriston IX asr oxiri-XI asr boshlariga borib taqaladi.Mazkur qabriston VII asrga oid vayron bo'lgan aholi manzilgohi ustida joylashgan va ibodathonaning janubida joylashgan aholi punktiga tegishli(Bulatova,1965).

2022-yilda Farg'ona davlat universiteti professori M.Isamiddinov rahbarligida Quva yodgorligida qazishma ishlari olib borildi.Quva yodgorligining ark qismining yuqori qatlamlarida olib borilgan qazishma ishlari natijasida 3 ta birin-ketin kelgan stratigrafik qatlam ochib o'rganildi. Uning eng pastki birinchi qatlami qalin (monumental) devor va uning pol qismi ochildi. Uning poli qismida yengil tipdagi uy devorlarini qulagan holda yotishiga qaraganda, qoraxoniylar davridagi o'zaro nizolardan kelib chiqqan urushlarning natijasi bo'lishi kerak, degan fikr keldi.Qatlamdan juda ko'p sopol idishlarning siniqlari, o'nga yaqin mis va kumush tangalar bilan birga topildi. Gumus qatlamidan 11 ta mis tangalardan 5 tasini aniqlashni iloji bo'lmadi, qolgan 6 ta tanga esa, Farg'onaning xijriy 357 yildagi xukmdori

Mansur b. Nux; Ahmad Mansur; Klich al Xadjibga ta'luqli. Badrab qatlamidan va yengil konstruksiyali xonaning polidan shu xukumdor tangalarini topilganligi bo'larni bir davrga oid ekanligidan dalolat berish bilan birga, arkning inqiroz davrini ham aniqlab beradi.(Isamiddinov,2023.)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki,Quva shahristoni eng qadimgi tarixiy-arxeologik manzigozlardan biridir.Yillar davomida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga qaramay,mazkur yodgorlikda o'rganilishi kerak bo'lgan qatlamlar mavjud.O'tgan asrda olib borilgan arxeologik izlanishlarni tartibli ravishda qayta amalga oshirish,zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mazkur yodgorlik haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlarni yuzaga chiqarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Axrorov.I.Kirpicheobjigatelnaya pech XI v. na starom gorodishe Kuva.IMKU,vip.3.tashkent,1961.
- 2.Bulatova.B.A.Drevnyaya Kuva.Fan.Tashkent.1972.
- 3.Shishkin.B.A.Uzbekistskaya arxeologicheskaya ekspeditsiya AN Uz SSR.IMKU-2.Tashkent.1961.
- 4.Shishkin.B.A.Uzbekistskaya arxeologicheskaya ekspeditsiya AN Uz SSR.IMKU-3.Tashkent.1962.
5. Bulatova.B.A.IMKU-6.Tashkent.1965.
- 6.Bartold.V.V.Turkestan v epoxu mongolskogo nashestvie.ch,II.SP.1900.
- 7.Isamiddinov.M,xasanov.M,Qambarov.N.2022 yilda Quva arkida olib borilgan qazishma ishlari.FarDu ilmiy habarlar,4-son.2023.
- 8.Varxatova.D.P.Takentepa.IMKU-5.Tashkent.1964.

INNOVATIVE
ACADEMY